MAKTABGA TAYYORLOV BOSQICHIDA BOLALARNING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Toshmatova Odinaxon Lukmonjonovna
Andijon Davlat pedagogika instituti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7677480

Anatatsiya: Mazkur maqolada bolalarning maktab ta'lim iga tayyorlashda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish mantiq orqali ong osti faoliyatini oshirish, aqli salohiyat haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Bolalar maktabga tayyorlov bosqichida tarbiyachi juda ham ko‘plab mantiqiy yondashishni va mantiqni ularda qo‘llashi lozim. Hamda olimlarning ishlari haqida ham qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Bola mantiqi aqli tarbiya, Sharq mutafakkirlari, ilmiy izlanuvchilar.

KIRISH.

Mantiq dalil keltirish va xulosa chiqarish prinsiplarini o‘rganuvchi falsafiy tadqiqotdir. Formal fan sifatida mantiq abstrakt unsurli tizimlarni tadqiq etadi, bu unsurlar ta’kid yoki argumentlar bo‘lishi mumkin. Mantiq muammolari o‘zi ichiga paradokslar, xatolar, sabab va oqibatlar orasidagi bog‘larga oid savollarni oladi. Mantiq — to‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiq o‘zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega.

Mantiq maktabgacha ta'lim sohasida ham qo‘llaniladi. Buning boisi shundaki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya bilan tahsil olayotgan bolalarning hayoti mobaynida oladigan bilim va malaka, ko‘nikmalarni maktabgacha ta'lim muassasalarda yani tarbiyachi yoki oilada asosan uch yoshdan, 7yosh oralig‘ida oladilar. Bu davr oralig‘ida bolalar juda ham qiziquvchan, hamma narsalarga "nimaga" yoki "nima uchun ", "qanday" degan juda ko‘plab savollarni beradilar. Buning sababi bolalar dunyoga o‘zlashtirilmagan yangi olam deb qarashadi. Shu bilan birga bolalar o‘zlari uchun juda katta olamni yaratadi savollariga javob olgansari. Bolalar miyasidagi mayda hujayralar juda ham ko‘p bo‘lib, kattalarga nisbatan 3-4 barobar ko‘p. Bolalar miyasi va eslab qolish qobiliyati shakllanadi. Miyaning ish faoliyati kattalarning miyasini ishlashiga nisbatan tez ishlaydi. Bolalar bizning bugunimiz xattoki ertangi kunimiz, yaniykim kelajagimizning egalari hisoblanadi. Bularni har tomonlama tarbiya qilishimiz, shuningdek maktabga tayorlanadi. Maktab ostonasi bolalarning hayot yo‘lidagi katta psixologik va jismoniy jihatdan chalg‘itib, charchatovchi davr desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuning

zamirida maktabgacha ta'lim muassasalarigi tarbiyachilar shuningdek ota - onalar juda ham masulyatli., og‘ir vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI:

«Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo’lmas»,[1] - deyiladi. Insoniyat paydo bo’lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o’z davrining e’tiborli kishilari darajasiga ko’tarilganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g’arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Tarixan ta’lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta’lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, yani ta’limiy maqsadlar ham aniqlanib borpedagogikasidadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta’lim berish g’oyasi birinchi bo’lib chet el chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo’lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish mumkinligini ko’rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e’tiborga olgan holda kishi o’rganishi lozim bo’lgan hamma narsaga o’rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya’ni biz ta’lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko’nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo’limdan iborat maktabgacha ta’lim dasturini tuzdi. Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta’lim-tarbiyasiga, o’qish metodikasiga katta e’tibor bergan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg’otishni, aqliy malaka ko’nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi. Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab maktabda o’qishga o’tishi munosabati bilan ularni, maktab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo’lishini ta’minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

M.X.Qilichova ilmiy izlanishlar olib borgan. B.E.Parmonov Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari maqolasida xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalarini yoritgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarining ilg’or tajriblarini tahliliy o’rgangan. I.G. Mamajonov, R.Mamatovlar esa Germaniya davlati ta‘lim tizimini o’rganishda qisman maktabgacha ta‘lim tizimiga oid ma‘lumotlarni kiritib o’tgan. M.X.Qilichova maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun- mohiyatini hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning o’ziga xos jihatlarini o’rgangan. Maktabgacha ta'lim muassasalari va oila hamkorlikda bolaning psixologik

va fiziologik o‘zgarishlarini kuzatib e'tiborli bo‘lishi talab qilinadi. Olimlar ham yillar mobaynida bolalarni mantiqiy fikrlashi ong osti tarmoqlari sharining va miyaning hujayralarini yaxshi ishlashiga asosiy sabab bo‘ladi. Mayya faoliyati jadallashadi, chunki bolalar o‘ylashadi, fikr yuritadi, taxlil qiladi va yechim topadi. Shu tufayli bolalar mantiqiy fikrlashi suvda ham zarur. Hayotiy faoliyatida muammolari bo‘lsa qiyinchilika bardosh bilan o‘zlari izlanib erishadi.

ASOSIY QISM

Yosh avlodni o‘z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoiylik ruhida kelajak taqdiri uchun mas'ullikni his eta oladigan, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab — avaylash ruhida jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo‘lmas vazifa ekan, bunda barcha ta'lim — tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi xodimlardan katta-katta ishlarni bajarishni talab etadi.O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim to‘g'risidagi uzluksiz ta'limni bir butun tizimini yaratish vazifasini ilgari surdi va mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan talablarni yanada oshirdi. Yana shunga bog'liq holda Respublikadagi pedagogika oliy o‘quv yurtlaridagi ta'lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish masalasi dolzarb masalaga aylandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini maktabga tayyorlash tizimida mantiq tassavurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi kursi muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mantiqni o‘qitish butun sistemasida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgartirishlar amalga oshirildi. Maktab oldiga yangi maqsadlarning qo‘yilishi maktabgacha Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini uzlashtirib olish, ularni jamg’arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo’lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko’rsatkichlari deb hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etishda birinchidan bolaning imkoniyatlaridan to’g’ri foydalanish, ikkinchidan bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo’lishi mumkin bo’lgan ortiqcha zo’riqish bo’lmasligi yo’llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o’rganish bilan shug’ullanadi.ta’lim tashkilotlarida mantiqiy ta'lim berish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi ta`limiy faoliyatni bir bo‘limidan bitta emas, balki butun bir ta`limiy faoliyatning mazunini rejalashtirib olib borilsa, ijobiy natijani qo‘lga kiritadi. Tarbiyachiga metodik qo‘llanmalardan foydalanib mashg‘ulot o‘tish tavsiya etiladi. Har bir MTTda metodik xonalar mavjuddir. Unda maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya dasturining hamda hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. Bu metodik qo‘lamalarni mantiqiy fikrlash

uchun ham qo‘laniladi gan lari mavjud bo‘lib. Bolalar uchun qulay sharoit va imkoniyatni paydo qiladi. Bolalar ham ko‘rib, hamda farqlab so‘ngra muhokama qilishadi. Bolalar tarbiyachiga taqlid qiladilar, taqlidchanlik qobiliyati yuqori bo‘lishi bilan birga bolalar kuzatuvchan bo‘ladi. Bundayin holatlar mantiqda juda samaraliy tarzda as qotadi. Bugungi kunning eng dolzarb masalasi bu bolaning ong ostini va dunyo qarashini boyitish hisoblanadi. Bolaning ong osti yaxshi ishlashi mantiqa ham bog‘liq bo‘lib, yoshlarni o‘ylashga muammoni hal qilish uchun do‘stlari bilan birdamlikda bo‘lishga va birga ishlashi uchun ko‘maklashadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi asosan o‘zi mantiqiy fikrlashi yaxshi rivojlangan, malakali bo‘lishini talab qiladi. Tarbiyachilar turli xil qiyinchiliklarga duch keladi, ba'zan tarbiyalanuvchilarning yordamiga hamda ko‘magiga tayanadi. Tarbiyachi mantiqni turli usullar orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Bolalarga mantiqiy tafakkurini shakllantirish uchun bir kun oldin tarbiyachi tayorgarlik ko‘rgan bo‘lishi lozim. Mantiq asosan quyidagicha turga bo‘lsak bo‘ladi.

Bular quyidagilar hisoblanadi.:

f) Savollar va topishmoqlar;

g) Muamoliy vaziyatlar tabiat va hayvonlar bilan bog‘liq holdagi;

h) O‘zlarining ishtirokidagi muamoli vaziyatlar

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga 4yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan mantiq orqali tafakkurini shakllantiriladi. Asosan bu yoshda faqat savol va topishmoqlardan foydalaniladi. Ular bolaning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Maktabga tayorlov yoshidagi bolalar endigina o‘tish davrini boshlagan bo‘lib, ular psixologik va jismoniy jihatdan ham tayyorgarlikni o‘tishadi. Bunda ota - onalar juda bolasiga ehtiyot bo‘lgan holda muomala qilishi, o‘ta darajada ko‘p yuklama bermasligi lozim. Chunki bola juda ham charchashi, psixologik va jismoniy jihatdan charchab qolishi maktabga borganda o‘zini yolg‘iz, darslar bolaga qiziqmasday his qilib qoladilar. Buning uchun tarbiyachi oila hamkorligida ko‘proq ishlab bolaning tarbiyasiga e'tiborli bo‘lishi zarur. Mantiqiy faoliyat orqali bolalarning psixologik hotirjamligini egallash uchun tabiat va bola qiziqadigan kuzata oladigan narsa, buyum kabi narsalardan tarbiyachi ijod qilgan holda mantiqiy savol tuzib. Bolalar bilan yechimini topish kerak. Bu maqola tarbiyachi, yosh oilalar shu bilan birga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ish olib boradigan insonlar uchun qo‘llanma vazifasini bajaradi degan umidamiz. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki mantiqiy fikrlash matematika bilan uzviy bog‘liq. Mantiqiy yaxshi tafakkurga ega bolalar matematikadan yaxshi ishlashib, to‘g‘ri yecha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi.Asqarova Dilorom Qurbonova 73- 80betlar.

2. Ta’lim metodlari va vositalari unumli foydalanish yo’llari Kamola Namozboy qizi Tog’ayeva.

3. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. E. M. Mardonov.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda aqliy faoliyatning o`rni. Qilichova Marhabo Xudoyqulovna To’lanova Feruzaxon Turgunboy qizi